

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 24 664 tani tashkil etadi, shundan 20 601 tasi yoki 83,5 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 1,1 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 1,1 foizni tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda)



Yillar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	24 664	20 682	20 601
2024	23 449	19 438	19 345
2023	25 235	21 338	21 226
2022	29 652	25 793	25 684
2021	27 246	23 524	23 411

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Termiz shahrida – 17,9 foiz, Denov – 11,9 foiz, Jarqo'rg'on – 7,7 foiz, Sherobod – 6,9 foiz va Qumqo'rg'on – 6,7 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Termiz shahrida – 86,7 foiz va 86,3 foiz, Denov – 84,7 foiz va 84,5 foiz, Jarqo'rg'on – 85,2 foiz va 84,8 foiz hamda Sherobod – 85,2 foiz va 84,9 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

Shahar va tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Termiz shahri	4 423	3 842	3 817
Denov tumani	2 934	2 486	2 478
Jarqo'rg'on tumani	1 893	1 612	1 606
Sherobod tumani	1 694	1 443	1 439
Qumqo'rg'on tumani	1 657	1 346	1 344
Termiz tumani	1 648	1 491	1 482
Sho'rchi tumani	1 642	1 375	1 371
Sariosiyo tumani	1 377	1 064	1 059
Angor tumani	1 354	1 167	1 162
Oltinsoy tumani	1 194	951	949
Uzun tumani	1 164	924	922
Muzrabot tumani	1 040	854	851
Qiziriq tumani	1 025	843	839
Boysun tumani	994	785	784
Bandixon tumani	625	499	498

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-iyun holatiga 33,9 foizni (40,4 foiz va 40,5 foiz) tashkil etdi.



Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,5 % (14,8 % va 14,7 %), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 9,3 % (10,9 % va 10,9 %).


Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turi	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 282	2 249	2 240
Sanoat	3 073	3 056	3 037
Qurilish	1 867	1 850	1 841
Savdo	8 355	8 355	8 337
Tashish va saqlash	616	612	608
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 702	1 695	1 695
Axborot va aloqa	371	364	363
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	505	411	410
Boshqa turlar	5 893	2 090	2 070

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, 20 682 ta faol tijorat korxonalaridan 12 546 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar viloyatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	12 546	60,6
Xususiy korxonalar	4 444	21,5
Oilaviy korxonalar	3 426	16,6
Aksiyadorlik jamiyati	16	0,1
Boshqalar	250	1,2

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 552 ta korxonalardan 62 tasi qo'shma korxonalar va 490 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 223 taga oshgan. Bu asosan, savdo sohasidagi korxonalar sonining 163 tadan 347 taga, (o'sish 184 taga), sanoat sohasida 55 tadan 77 taga (o'sish 22 taga) va axborot va aloqa sohasida 9 tadan 17 taga (o'sish 8 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

Iqtisodiy faoliyat turi	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	552	62	490
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	34	10	24
Sanoat	77	26	51
Qurilish	30	5	25
Savdo	347	18	329
Tashish va saqlash	15	1	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15	-	15
Axborot va aloqa	17	-	17
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	-	5
Boshqa turlar	12	2	10

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 374 ta korxona bilan Afg'oniston respublikasi egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 67,8 foizini tashkil etdi. Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (7,4 %), Tojikiston (5,4 %), Turkiya (4,9 %), Xitoy (3,6 %) va Qozog'iston (2,4 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	552	62	490
Afg'oniston	374	16	358
Rossiya	41	16	25
Tojikiston	30	4	26
Turkiya	27	4	23
Xitoy	20	3	17
Qozog'iston	13	4	9
Pokiston	7	-	7
Eron	8	3	5
Belorussiya	4	1	3
Hindiston	4	2	2
Armaniston	3	3	-
Buyuk Britaniya	3	-	3
Turkmaniston	3	1	2
Ukraina	2	-	2
Janubiy Koreya	2	1	1
Ozarbayjon	2	-	2
BAA	1	-	1
Qirg'iz Respublikasi	1	-	1
Yaponiya	1	1	-
Boshqa davlatlar	6	3	3

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxona va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot korxona va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

O. Raxmonov
55 451-80-00 (76-50)

Maznil:

190108, Termiz shahar,
at-Termiziy ko'chasi, 7-uy
